

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA fakulteti

O'ZBEK FILOLOGIYASI kafedrası

KURS ISHI

MAVZU: Abdurauf Fitrat dramalarida tarixiylik tamoyil

Bajargan:

Rajabbayev Daniyar

Qabul qilgan:

Duyserboyev Olim

Nukus – 2013 y

Abdurauf Fitrat dramalarida tarixiylik tamoyili

Reja:

I Kirish

II Asosiy qism

- a)** Fitrat dramaturgiyasida Vatan mustaqilligi va erk g'oyalari
- b)** Tarixiy voqealik va badiiy talqin
- v)** “Abulfayzxon” dramasidagi Hayol obrazining ahamiyati

III Xulosa

Mustaqilikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixni bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu— tabiiy hol. Insoniyat borki, avlod-ajdod kimligini,

nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishkoq, shaharining, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Hozir o'zbekiston deb atakuvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu- siyosatchilar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan. Biz marifat so'zini ko'p bora takrorlaymiz Prezidentimiz I Karimov aytganlaridek: **“ Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch — ma'rifatdir.**

Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni eslashimizning o'zi nega o'sha yillari ma'rifatchilik harakatlarining har qachongida ham kuchayib ketishi, Chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga, faqat ma'rifat orqaligina erishishimiz mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Ma'rifatparvarlik biz uchun bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham.

Ma'naviyat, marifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma'rifatchi fidoyi bo'lmog'i kerak. XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakatlari, o'sha harakatning nomoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvvar Qori, Tavolla, Fitrat kabilar maktab ochganlari, istibdodga qarshi kurashganliklari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilgan va bila turib ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. Chunki, vijdonlari iymonlari shunga da'vat etgan.

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida xayotida emas , balki butun dunyo xayoti alg'ov – dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi . Ijtimoiy hodisalarning almashinish sur'ati aqilga sigmas darajada tezlashdi . Jadid adabiyoti to'ligicha millatni uyg'otishga qaratilgan edi . Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yo'qori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas

balki ommaning ichidan chiqqan , unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkonyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi . Jadid yozuvchilari shunchaki ijodkor emas , balki jamoatchi ham edilar . Ular faqat qalami bilan emas , balki ijtimoiy siyosiy ma'rifiy amali bilan ham millatni uyg'otishga aht qilgandilar . Agar ma'rifatchilar ko'p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular lib kirgan bo'lsa , jadidlar o'zbek adabiyotiga drama , roman , hikoya singari yangi janrlarni kiritdilar . Jadid adiblarning asarlarida insoniy taqdirlar qismat fojialari , millat ozodligi inson erki , vatan buyukligi muammolari fonida aks ettirildi. Jadid adabiyotida tarixiy adolat, siyosiy tenglik, shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish singari o'tkir ijtimoiy muammolar juda ko'p tasvirlanadi. Jadidlarning vatan, millat, xalq ozodlik yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiy ammo, yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolari edi. Bunday asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insoning shahsiy fojeyasi bilan birgalikda ifoda etilardi. Tuyg'ular samimiyati, iztirob ko'lamining kengligi ruhiy dardlar terangligini oshirib, umumning dardi alohida shaxsninng g'ami, yetuklik darajasiga ko'tariladi. Odatda, ko'pchilikning iztiroblari alohida shaxslarning dardlaridan baland turadi deb hisoblanadi. Holbuki, dard xususiylashsagina umuminsoniy miqiyos kasb etadi. Sho'rolar davrida o'zbek adabiyotining moxiyati tubdan o'zgardi. Lekin bu birdaniga sodir bo'lmadi. 1917- yilgi oktabr to'ntarilishidan keyingi dastlabki davrlarda ham so'z va ijod erkinligi bir qadar saqlandi. Sho'rolar yetarlicha siyosiy va tashkiliy kuchga ega bo'lmagani, uning g'oyalarini kuylaydigan adiblar qatori hali shakllanmagani uchun badiiy adabiyotda nisbatan erkinlik bor edi. Eng iste'dodli ijodkorlar, tabiiy ravishda, millat va vatan ozodligi uchun kurashayotgan jadid yozuvchilar safida edi

Yozuvchilar safida Abdurauf Fitrat o'zbek xalqi hayotida XX asr tongida boshlangan yangi Milliy uyg'onish davri va uyg'onish adabiyotining buyuk vakilidir

Abdurahim og'li Abdurauf 1886-yil Buxorada tug'ilgan "mir arab" madrasasida o'qigan Turkiyaning Istanbul dorilfununudagi to'rt yillik tahsil Abdurauf dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "Yosh buxoraliklar" ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtirok, maorif isloh etish jadidchilik xarakatlaridagi jiddiy izlanishlar tufayli tug'ilgan savollariga bu mamlakatning zamonaviy kechmishlaridan javoblar qidirdi.

Bu vaqtda "tug'ma istedod" ma'nosini anglatuvchi Fitrat taxallusi bilan ijod etayotgan shoir va yozuvchi sifatida el-yurtga taniqli edi. 1917-yil Fevral inqiloboda Fitrat o'z orzularii ham ko'rganday bo'ldi, biroq Oktabr to'ntarilishi uning terang dunyoqarashiga yangi titroqlar soldi. Bir qarashda umidbaxsh ko'ringan aslida esa, zamirida bosqinchilik g'oyalari, qatog'anlik siyosati, yashirin havolardan umidlarini goh ichiga yutib, goh oshkor etib yashadi. Turkistonda til adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'illangan "Chig'atoy gurungi" jamiyatiga rahbarlik qildi, adibning Toshkentdagi eng katta ishlaridan biri bu tashkilotni yo'lga qo'yganligi bo'ldi. Madaniyatimiz tarixida alohida o'ringa ega, o'tmish merosimizni o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, avlodlarni ajdodlarning o'lmas ruhiyati bilan bog'lashda benihoya katta xizmat qilgan bu jamiyat haqida afsuski, halig qadar haqqoniy gap aytilgan emas. Holbuki, uni atrolicha tekshirish va baholash payti allaqachon kelgan. Fitrat bundan tashqari Samarqanddagi Ped akademiya dars bardi, Toshkentda Fan qo'mitasi qoshida til va adabiyot institutida ilmiy hodim bo'lib ishladi. Buxoro xalq respublikasining tashqi ishlar xalq noziri, maorif noziri, singari lavozimlardagi faoliyatida Fitratning davlat arbobi sifatidagi fazilatlari nomoyon bo'ldi. Fitrat o'zbek adabiyotini istiqlol ruhidagi

ajoyib she'rlar, publistik maqolalar, nasriy asarlar, dramalar hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan teran tadqiqotlar bilan boyitdi. Fitrat o'z dramalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojida buyuk ro'l o'ynaydi. Uning "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari", "Arslon", "Vose' qo'zg'oloni", "Abulfayzxon", "Shaytoning tangriga isyoni" singari dramatik asarlari muallifiga katta shuhrat keltirdi. Bulardan tashqari, Fitratning yana bir qator dramalar yozgani ma'lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan yonud hozirgacha topilmagan. Yozuvchi "Hindistonda bir farangli ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg'on munozarasi" "Munozara", "Hind sayyohining bayonati" "Qiyomat" nomli nasriy asarlarida dolzarb muammolarni yoritdi, xalqni ma'rifat va ziyoga chorladi, yurt va yurtdoshlarining taraqqiyparvar bo'lishlarini orzu qildi

Fitratning eng buyuk orzusi Vatanni ozod elni erkin ko'rish edi, bu yo'ldagi faoliyati va ijodi esa musttabid tuzum maqsadlariga zid edi. U ana shu fidoyilikning qurboni bo'ldi. Adibning "Munozara", "Hind sayyohining qissasi" kabi asarlari mustabid Buxoro amirligi idorasiga islohatlar kiritish maqsadiga yozillgan edi. Uning "Hind sayyohining qissasi" Buxoroga kelgan Hindistonlik sayyoh tilidan hikoya qiladi. Muallif asarda Buxoro aholisining uch toifaga: ulamo, umaro, fuqaroga ajratib tasvirlaydi. Ana shu tabaqalanish mazmunida yozuvchi jamiyatdagi kuchlar nisbatini ko'rsatadi, kim-kimning hisobiga yashayotganini kimlar adolatsizlik qurboni bo'layotganini yaqqol gavdalantiradi. Buxoro amirligi o'sha paytda Karmana, Qarshi, G'uzoor, Shahrisabz, Sherobod Sharqiy Tojikiston sarhadlariga hukumronlik qilar edi, bu hududlarda madaniyat nihoyatda tushkun ahvolda muftiy, amir, beklar amaldorlarning ilm-fandan nihoyatda uzoqligi boylikva poraho'rlikka xirs qo'yganligi xalq boshiga qashshoqlik, jaholat, zulm, qorong'ulik ko'lankasini solib turar edi. "Hind sayyohida..." Buxoro amirligidagi o'ta qalloqlik, johillik xalq qonini so'ruvchi katta – kichik

amaldorlar ajnaviy fabrikantlar va mahalliy boylar va tojirlar savodsiz muftiylarni qora kunining taqdirini ilohiyga tikkan qora xalq — kosib va dehqonlarni qattiq tanqid qiladi. Buxoro amirligiga qarashli dehqonchilik qilinadigan yerlar ahvoliga achinadi: “ agar shu Shaxrisabz yerlari Yopon elida bo’lganda edi, zar ekib, zar undirar edilar “ , deb yozadi u.

“Hind sayyohi”ning... zamonoviy ahamiyati ham yuksakdir .

O’tgan asrning XX yilari boshida yozgan “**Chin sevish**” dramasiga Hindiston hayotidagi voqealarni asos qilib oladi. Chunki, hayoti misolida bosqinchilarga qarshi kurash g’oyasini ilgari surishning iloji yo’q edi. Asar ko’proq ma’naviy- ishqiy yo’nalish asosiga qurildi. “Chin sevish”dagi **Karimbaxsh** bir vaqtlar Ovropani maqtardi, endi esa yo’q, fikri o’zgargan: “ Ovropada bilim bor, lekin insof yo’q. Ovropaning bilimi qoplonning tishi,tirnog’l kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib, yemak to’g’risida ko’p ish ko’rmishdir”, - deydi xotini Fotimaxonim. Va uning etiroziga javoban : “ Ovropa ishklarini o’rganmak albatta kerakdir. Ovropada o’qimoq, ovropaliklarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o’zimizni saqlamoq tishli tinoqli bo’lish kerakdur”, deydi. Bunga javoban **Rahmatulloh** : Men Angletarada shuncha o’qidim, o’quvchilar, o’qituvchilari , yozuvchilari, faylasuflari bilan ko’rishdim. Birortasidan siz aytgan yavlikni sezmadim. Deya javob beradi.

Ayni paytda bu bilimlarning”Kishilik dunyosining yuksalishi va tinchligi yo’lida ishlatish qulay” ligini ta’kidlaydi. Masalan, chin sevgi Vatan sevgisidir,bunga asardagi Huriddinxonning so’zlarini eslash kifoya qiladi:

Oh.. Zulayho!.... umid hulkari !... sening hayoling bilan yashamoq uchun mana shunday kechag’a o’hshagan qop-qora zindonlar kerakdur. Ahmoq angilizlar meni qo’rqitgani bu yerda qamabdurlar.

Ket.. malagim, ket... Sevgi butog’lari bo’lgan oyog’laringni o’pgan Hindiston yerini tamug’ yilonlarig’a o’hshagan angiliz ayog’larin ostida

ko'rmak menim uchun uyatdur, bunga ko'nmam, kirli ayog'larin bu o'g'irli yerdan chiqarg'ancha tirishamen Avvalo, marifatchilik talqining butunlay o'zgarganiga etiborimizni qarataylik, sal ilgarigi Vatandoshlarimiz nazdida Evropa ideal, ilm – marifatga timsol edi. Ko'z ochilgan sayin boshqa manzara nomoyon bo'la boshlaydi, ularning og'zidagi gaplari bilan qilayotgan ishlari o'rtasidagi jarlik toboro ravshanroq ko'rina boshladi Masalan, Rahmatullo oldingi qarashlaridan zarra qaytgan emas, u hali ham Evropani ustoz deb biladi. O'rgangan har bir narsasi uchun uning oldida o'zini qarzdor hisoblaydi Evropalilar orasida musulmon bo'layotganlar borligini, masjidlar qurayotganliklarini hayajon bilan gapiradi. Lekin Karimbaxshning o'z nuqtayi nazari bor. Uningcha, ingilizlarning “masjid yasamoqlari Ka'bani buzmoq uchundir” Nuriddinchi? U – ixtilolchi. Vatanni dil- dilidan seyadi. Uning o'zgalar oyog'i ostida toptakishidan qattiq iztirob chekadi, va uning hayoti to'la tahlikada bo'ladi. Bir tomonda, ingilizlar . ikkinchi tomonda , - Rahmatulloga o'xshaganlar . Peshvorda bir ingiliz o'ldirilgani uchun Dehliyda harbiy holat e'lon qilingan. Shu bahonada “Vatan!” degan hindning bari qo'lga olinmoqda . Rahmatullahon Zuloyxo tufayli uni yo'qotish rejasi bilan band . Nuriddinhon ko'nglida esa , bir – biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan ikki hayol , bir timsol bor : Vatan va Zulayho .U qamoqda ekan , bu tuyg'u yanada kuchayib boradi “ Chin oshiqlar ma'shuqalarining o'zi bilan emas hayoli bilan yashayur ” , - deydi u . “ Chin sevish ” da boshlangan “ Hindistonni tozartish ” g'oyasi “**Hind ixtilolchilari** ” da davom etdi . Chinakam muhabbat uni yani Vatanni ozod qilmoqdagi xarakatlarini anglashimiz mumkin. Ushbu asardagi bosh g'oya va qahramonlar saqlanib qolib, milliy istiqlol ruhi kuchaytirilgan deyarli yangi drama – “ Hind ixtilolchilari” dramasi paydo bo'ldi. Asar markaziga Vatanni bosqinchilardan ozod qilishni hayotning bosh mazmuni deb bilgan Raximbaxsh va sevgilisi Dilnavoz obrazlari qo'yildi. Abdusubbuh, Badrinat, Fayzi Ahmad, va

Mahmudxon- Rahimbaxshining hammaslamlari, kelishmovchiliklarni diniy, irqiy, g'oyaviy sinfiy va boshqa itiloflarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, birlashish va ona tuproqni bosqinchilardan ozod etib Hindistonni mustaqil qilish kerak degan g'oya asarning asosini tashkil etadi.

“Hind ixtilolchilari” dagi ingliz Marling Hindiston aholisining turli din-etiqodiga maslak mashadga mansubligidan ular orasidagi nizolardan ustalik bilan foydalanadi. Bir- biriga qarab qo'yib, chetdan kuzatadi, “Ingliz ulusining hindga kelganliklari hindliklarni eshitirmak madaniy qilmak “ uchun edi, — deydi Mavlonga. —Biz kelmasdan burun Hindistonning din janjallari, qorin – qursoq urushlari bilan to'lg'on edi . . . Shul buzuqliklarni tuzatdik. Madaniy yashamoq yo'llarini ko'rsatduk..”

Dramada ikki yosh – Rahimbaxsh va Dilnavoz bir – birlarini sevadilar biroq yurtida erk yo'q . Vatan o'zgalar oyog'i ostida, shu tufayli ular ham erkin emasdir. Bir kuni kuppa - kundizi bosqin qilib , “ Hukumatga qarshi yashirin kengashasiz ” deb ikki yoshni qo'ga oladilar . Rahimbaxsh qamoqqa tashlanadi , sevgilisi Dilnavozni Loxur polisi boshlig'i O'kunar ishrat uchun olib ketadi . Rahimbaxsh qamoqdan qochib inqilobchilarga qo'shiladi , do'stlari yordamida Dilnavozni qutqaradi . Biroq inqilobchilarning turgan joylari inglizlarga ma'lum bo'lib qoladi . Tengsiz jangda Dilnavoz Badrinat degan hindi inqilobchi bilan yana dushman qo'lga asir tushadi . Asar ohirida ularning ozod qilinishi , hammalarining “ Yurtimizni qutqaramiz ! Yashasin istiqlol ! ” degan xitoblari bilan yakunlanadi .

Asarning har bir sahifasida vatanga bo'lgan qizg'in mehr yorishib turadi . Muallif mute' millatning psixologiyasiga ko'z tashlaydi: Afg'on chegarasidagi Bunir qorg'onining boshlig'i mavlono Nu'mon uyida gazeta varaqlab o'tiribdi . Inglizlarning g'alabasi haqqida xabarlar. Unga baribir , qaysi hukumatga hizmat qilishning ahamiyati yo'q . Or – nomusning o'zi yo'q, biroq shamolning avzoyini bilib qo'ygan yaxshi. Hozir inglizlarning qo'li balandga o'xshaydi. U shunday fikrlaydi: “

Ingiliz - Tangrining balosi. Nima qilamiz, “kofir” bo’lsa ham Tangri shunga yaxshi qarag’on endi” Ko’p o’tmay, uning huzuriga ingiliz josusi Marling keladi. O’rtada “suhbati xos” ketyapti. Shunda **Marling** yuqorida gaplarini aytadi : “ biz Hindistonni adolat bilan oldik, adolat bilan saqladik. Yana adolat bilan o’zingizga qaytarmoqchimiz bo’lamiz...” U Angiliyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatini oq – oppoq qilib olgach, navbatdagi ishga - mamlakatdagi ikki buyuk millat orasiga nizo urug’ini sepishga kirishadi.

Asardagi Abdusubbuh o’z fikrida qat’iy turadi. Uningcha, ingilizlarni Hindistonga boshlab kelgan narsa ham yurt ichidagi shu xil janjallardir: “ Siz mullalar, tutash shunday qilasiz, Hindistonni yillarcha el – aymoq janjallari bilan to’ldiringiz. Ulusni yettmish to’rt bo’lak qildingiz, har bo’lakni boshqalariga yov etdingiz. O’lkamizni ichki janjallar bilan to’ldirdingiz, shunday qilib ingilizni boshimizg’a kelturdingiz. Birlashdik, qutulmoq istadik. Yana maxzab, din janjallari bilan yo’limizni to’smoqchi bo’lasiz. Uyalingiz! Erkimizga tirnoq urmoqchi bo’lg’anlarga qarshi chiqurmiz. Qo’lg’a, qo’l berib kurashamiz, bizni bu yo’ldan siz –da, din – da qaytara olmas!”

Asar voqealari faqat Hindistongagina tegishli emas, balki, boshqa mustamlaka va mustamlakachi mavjud bo’lgan har bir mamlakatga dahldor hisoblanadi. Shu jumladan, Turkistonga ham tegishlidir. Fitrat asarda Hindlarning ijtimoiy va siyosiy ahvolini ko’rsatish orqali Turkistonda ro’y berayotgan voqealarga ham befarq bo’lmaslikni anglashni nazarda tutadi. “Arslon” dramasi ham Turkistondagi Buxoro xonligida yashagan dehqonlarning og’ir hayoti va qismatidan olingan voqealarga boydir.

Arslon – dramaning bosh qahramoni u to’yga yig’ib yurgan pulini sarflab, bir necha kambag’al yigitlarni xonavayron bo’lishdan saqlab qoladi. To’lg’inoy ismli qizni cheksiz sevishiga qaramay endi to’y qilishining imkoni yo’q Fursatdan foydalangan ellik yoshli sudxo’r

Mansurboy o'n sakkiz yoshli To'lg'inoyga og'iz soladi, qiz esa sevgisida qat'iy turadi. Arslonga yetishishga u ham chorasiz qoladi. Asarda shu muhabbat iztiroblarini va adolat uchun kurash jarayonlarini ko'rsatadi. Sinfiylik nazaryasiga qat'iy amal qilish, boylarni butkul qoralash, kambag'allarni nuqul ulug'lash talab qilingan bir sharoitda Fitrat bu mafkuraviy ko'rsatmalarga amal qilmadi. Realistik san'atkor sifatida o'z etiqodlariga sodiq qoldi. Ziddiyatlarni sinflararo emas, shaxslararo bo'ladigan hayotiy qarama – qarshilik sifatida ko'rsatadi. Bek, Yasovulboshi, Darg'a singari amaldorlardagi xislatlar ham sinfiy mansubiyat sifatida emas, hayotdagi jonli odamlar tabiiyati tarzida talqin qilindi. Arslon atrofidagi haqsizliklarni ko'rib chiday olmaydi, jabrdiylardalarga yordam beraman o'zi ko'p ziyon chekadi. Do'sti Botur uchun o'rtaq tushib qamaladi. Hamqishloqlari uning hovli - joyini sotib, qutqarib oladilar. Xullas, u qamoqdan qaytib, kelganda sevgan qizini boy xotinlikka olgan, endi joni uzilgan onasi Tursunbibinig esa iyagini bog'lar edilar. Asar Arslonning boydan o'ch olish voqealari bilan yakunlanadi.

“ **Temur sag'anasi**” dramasi Temur tarixiy shaxsi bilan bog'liqdir. Uning bizgacha to'liq nashri yetib kelmagan. Ayrim parchalarigina yetib kelgan mutaxassislar qayd etganlariday, bu asar “Yurt qayg'usi” dagi lirik qahramon murojaatiga javobdek taassurot qoldiradi. Masalan, Temur qabridan qo'zg'alib, bugungi avlodga shunday xitob qiladi :

“ Men sizlarga ko'p narsalar yetkardim. Ne bo'ldiki, bir zamonlar sharaflari va jasur bir millatning avlodlari hozir boshqa bir millatning zulmi ostida qolmish. Kimlar bog'laringdan qushlarimizni quvmoqda!.... Otalar merosidan nimani oldingiz! Sizdan talab etamam, qalqingiz!.. o'lkani tuzatingiz, avlodlarimning hur yashamoqlarini ta'min etingiz. Agar bunday qilmasangiz, o'lka buyuk bir mo'zarlik holiga kelur “

Shaxs erkinligi, ijtimoiy traqkiyot muammolarini hal etishga qaratilgan

“ Shaytonning tangriga isyoni” nomli she’riy dramasida bu muammo yanada keskinroq qo’yildi. Bu kichik dramatic doston “Shaytonning tangriga isyoni” Oktyabrning oqibatlarini, yo’qsillikni ilohiylashtirish fojeasini o’ziga xos yo’sinda ifodalab bergan bir asardir . Odam yo’qdan bor qilindi, halifa deb e’lon qilindi. Lekin unga hechkim itoat etmadi. Ohir – oqibat dunyo yaratganning amri bilan azalga qaytdi. Go’yoki diniy xurofat tanqid qilinayotgan yo’sinda yozilgan dramada muallif o’zining asl g’oya va maqsadlarini tagzaminli , yashirin shaklida ifodalaydi. Tangri , Shayton , Malak, Odam aro bo’lib o’tgan o’tkir munozara, baxslar asosida Fitrat asar yozilgan davrda o’z xalqi uchun nihoyatda muhim bo’lgan Vatan erki, va shaxs erkinligi mammolarini badiiy gavdalantidi.

Buxoro amiri hukumronligi ostida yashagan tojiklar hayotidan olgan **“Vose’ qo’zg’oloni “** tarixiy dramasidir . Buxoralik dehqonlarning aksariyat ko’pchiligi kambag’alikda kun kechiradi , chunki yer va ish hayvonlari amir va uning amaldorlari qo’lida edi . Mang’it amirlari Buxoroda butun hokimiyatga ega bo’lib ularning zo’rovonlik bilan hokimiyatga putur yetkazishi mumkin bo’lgan biron - bir norozilik chiqishlariga yo’l qo’yishmasdi. Dehqonlar zulim bilan murosa qila olmay zolimlarga qarshi oshkoro qarshi chiqdilar . Amir Muzaffar hukumironligi davrida ijtimoiy zulm haddan oshdi , bu davrda soliqqa tortish pul ko’rinishidagi yig’imlar yetakchilik qildi . Xiroj , zakot va juz’ya asosiy soliqlar edi . Agar dexqonning soliqni to’lashga puli bo’lmasa , uning mol mulki tortib olinar edi . Kasotga uchrash , qashshoqlikning tuban darajasi , amaldorlarning hokimiyatdagi suiistemollariga qarshi norozilik dehqonlarni qo’zg’olon ko’tarishga majbur qildi va Baljuvon bekligidagi qo’zg’olonchilardan biri yosh Vose’ juvozkash boshchiligida **“ Vose’ qo’g’oloni ”** bo’ldi . Qatorasiga ocharchilik yillaridan so’ng Baljuvon dehqonlari ilk bora mo’l-ko’l hosil yig’ib olishgandi , amaldorlar esa nafaqat o’sha yil uchun , balki o’tib

ketgan kamhosil yillari uchun ham hiroj to'lashni talab qildilar . Bunday soliqni adolatsizlik va talonchilik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortdilar hamda kambag'al Vose' tevaragiga uyishdilar . Asardagi bir qator tojik kambag'allaridan biri oltmish yoshlardagi Bobo Sanginning Vose' bergan javobidan uning bu nohaqliklarga ortiq bardoshi qolmaganini payqash mumkin

Bobo Sangin : Qo'rqmaymiz! O'ldirishsa, ham qaytaga bira to'la qutula qolamiz... Axir bor bisotimizni tortib olsalar , bolalarimiz ochlikdan ming turli balolarga giriftor bo'lib qirilib ketsalar, biz bir chetda tomoshabin bo'lib qarab turaveramizmi? Tiriklikdan nima bahra topdikki, o'limdan qo'rqamiz! Asar yakunida yomon tayyorgarlik ko'rgan dehqonlar qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi . Rahnamolarning barchasi, jumladan, Vose' ham qatl etiladi. Muallifning o'zi so'z boshida bayon qilishicha , “ Bu tomosha tojik tilida yaratilgan ilk sahna asaridir”. Fitrat bu mavzuni badiiy adabiyotda nisbatan birinchilardan bo'lib yoritgan adi. So'ngra bu mavzuda M. Tursunzoda, A. Dehotiy, G'. Abdullo va S. Ulug'zoda kabi tojik adiblari libretto , drama, roman, doston kabi janrlarda asarlar yaratgan. Asardagi tarixiy shaxslardan biri **Mulla Nazir**- tarixiy shaxs asardagi asosiy qahramon bilan birgalikda qatnashgan va Kitob shahrida qatl qilingan, asarning prototiplaridan biri .

Mizrabxon qo'zg'oloni - 1880-yillarning boshlarida Xovalingda bosh ko'targan qo'zg'olonchilarning boshliqlaridan. Amir u bilan muzokara o'tkazib, uni Baljuvonga vaqtincha hokim qilib tayinlangan, so'ngra esa , Buxoroga chaqirib olib, qatl qilgan. Vose' ana shu harakatlarning ishtirokchisi hamdir.

Gaim - tog'da o'sadigan qayrag'ochga o'xshagan daraxt, soyasi quyuk, shoxlari zich bo'ladi.

Daktur – Buxoroning sharqidagi qishloqlaridan biri.

Norak ko'prugi - Janubiy Tojikistonda Vaxsh uzra qo'yilgan ko'prik. Kabi tarixiy joy nomlari keltirilgan.

Har bir mamlakat o'ziga xos yirik bir oila singari o'z hayotida yashaydi, uning kulfatlari va baxtsizligi boshqasini o'xshamasligi mumkin. Lev Tostoyning hamma baxtli oilalar bir-biriga ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi, hamma baxtsizlarning baxtsizligi esa o'zicha kechadi degan, fikrlari mamlakat hayotiga ham tegishlidir. Shu ma'noda XVIII asrda Angliya yoki Yaponiyada sodir bo'lgan voqealar bilan Buxoroda kechgan xunrezliklar bir-biriga o'xshamasligi tabiiy. Biroq adiblar millatning uyg'oq darkchisi sifatida mana shu tarixqa'tidagi voqealarni badiiylashtirish orqali o'z davriga munosabatini anglatadi. O'zbek adabiyotida mamlakatni idora qilishda faqat o'z shaxsiy manfaati-yu maishatdan boshqani bilmagan hokim va beklarning tarixiy taqdiri inqirozdan iborat ekanligi yuksak g'oyaviy va madaniy saviyada tasvirlab berilgan asarlardan biri sifatida Fitratning **“ Abulfayzxon”** dramatik asarini ko'rsatish mumkin. Fitratshunos I. G'aniyevning talqinicha: “ Abulfayzxon “ dramasidagi aks etgan xronotopning muallif yashab turgan zamon va makonga munosabatini aniqlash uchun oktabr to'ntarishidan keyingi dastlabki o'n yilliklar tarixini u o'zi taqdim etgan shaklda emas, bizga hozir ayon bo'lgan shaklda ko'z oldimizga keltirish kifoya.

Zero, bolsheviklar ham hokimyatni qon to'kish yo'li bilan qo'lga kiritgan va keyin ham ishni xuddi shu yo'l bilan davom ettirgan edilar”. Demak, “abulfayzxon” dramasi tarixiy mavzuda bitilib, Fitrat xalq tarixini tomashabin ko'z oldida qayta gavdalantirishdan tahqari o'z zamonasidagi nosozliklarga nisbatan ham munosabatini anglatib ulgurgan. 1924- yilda yozilgan “Abulfayzxon” tragediyasining ahamiyati katta. Ushbu asar o'zining mukammalligi bilan XX asr adabiyotida alohida o'rin tutadi. Mazkur tragediyaning yaratilishiga sabab bo'lgan narsalar yoki voqealar – hodisalar, nima dega savol tug'iladi ?

Fitrat Fevral burjua inqilobidan juda katta umidvor edi. Uning umidlari oqlanmadi. Oktyabr to'ntarilishi esa, xalqimizning mustaqillik haqidagi orzularini chil – parchin qildi. Ayniqsa, erkinlik, ozodlik, teng huquqlilik, degan soxta shiorlar ostidagi zulm asosida ish ko'rilishi uning terang idrokida bu tuzumga nisbatan ishonchsizlik uyg'otdi. Shunday paytda Turkiston muxtoriyati masalasi ko'tarilib, uning vatanparvar yuragida yana umid uchqunlarini uyg'otadi, biroq, dushman dushmanligini qildi, Muxtoriyat qonga belandi. Fitrat tarjimai holidan ma'lumki, u buxoroda adolatli tuzum o'rnatishga chin dildan ishonganligi tufayli unga umrini tikkan edi. Ammo bu orzulari ham sarob bo'lib chiqdi, Vatan, xalq va adolat fidoiylari turli baxonalar bilan chetlashtirildi, ayb qo'yilib, jazoga tortilla boshladi. Sotqinlar martabalarining ko'tarilishi, haqiqiy oqillarning jazolanishlari, mahalliy arablarga nisbatan ishonchsizlik, huquq va mustaqillik baxonasida o'tkazilgan milliy chegaralanish siyosati zamiriga yashiringan mustamlakachilik xarakatlari “ Abulfayzxon “ tragediyasining yozilishiga sabab bo'lgan omillar hisoblanadi. Ayniqsa Abulfayzxonning bir yurt xoni bo'la turib, mamlakat jilovini o'zga bir podshohning qo'lga tushib qolishi haqidagi hayotiy dalillar Fitratni qattiq qiziqtirib qoldi. Asarni yaratishda Fitrat mavjud tarixiy manbalardan keng miqiyosada foydalangan. “ Abulfayzxon “ ashtarxoniylar sulolasi barbod bo'lib, mang'itlar sulolasi boshlangan, ikki holatda ham mamlakat honavayron ahvolga tushib, saroyda qon to'kishlar, fisqu – fujur va boshqa xil qabihliklar cheklanmagan bir davr tasviriga bag'ishlangan o'zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy dramadir. Ashtarxoniylar o'zi kimlar degan savol tug'iladi. Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, XVI asrning 80 – yillaridan boshlab Ashtarxon (Hoji Tarxon, Astraxan) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukumronlik qilgan. 1556 – yilda Astraxanni Rossiya bosib olgach, ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oila azolari va qarindosh urug'lari bilan Buxoraga keladi. Ularni Buxoro xoni Iskandarxon izzat – ikrom bilan kutib oladi. Iskandarxon qizi

Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga beradi. Jonibek Sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Dinmuhammad , Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'radi. Jonibek Sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuksak mavqega erishib, Buxoro xonligi viloyatlarida hokim vazifasida faoliyat yuritadilar.

1601 –yilda Jonibek Sultonning o'g'li Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqazildi. Buxoro xonligi tarixida yangi sulola – ashtarxoniylar sulolasi hukumronligi boshlanib, 175 – yil davomida mamlakat shu sulola tomonidan boshqarildi. 1702 – yil Subhonqulixon vafot etgach, toju – taxtni uning o'g'li Ubaydullaxon egallaydi. Ubaydullaxon II goh isyonkor qabilalarga qarshi , goh bo'sunmas mahalliy hukumdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi . ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. U ana shu maqsad yo'lida harakat qildi. Buxoro xonligi tasarufida bo'lgan Farg'ona vodiysida ham XVIII asr boshlarida ajralib chiqish harakati boshlanib, hokimyat avval Chust yaqinidagi Chodak xo'jalari qo'lga o'tadi. 1710- yilda esa hokimyatni ming qabilasi boshlig'i Shohruh biy egallab, mustaqil Qo'qon xonligiga asos soladi.

Ubaydullaxon davrida ijtimoiy – siyosiy parokandalik kuchaydi. Har bir viloyat hokimi mustaqil bo'lishga intildi . natijada, Ubaydullaxonga qarshi fitna uyushtirildi va 1711- yilning 16 – martida u o'ldirildi.

Taxtga Ubaydullaxonning inisi Abdulfayzxon (1711- 1747) o'tqaziladi. Abdulfayzxon tomonidan fitnaning hamma ishtirokchi va ijrochilari saxiylik bilan mukofatlandi. Ular katta- katta lavozim egalari bo'ldilar. Ubaydullaxonning yaqinlari , amaldorlarning mol –mulklari talandi, o'zlari esa qatl etildi.

Shunday qilib, parokandalikka qarshi , oily hokimyatning kuchaytirish va mamlakat birligini ta'minlash uchun kuashgan Ubaydullaxonning hukumrronligi fojeali yakunlandi. Abulfayzxon kundan – kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amrlar, va zadogonlar qo'lida bir

qo'g'irchoq hukumdor edi holos . Bu davrga kelib xonning ahvoli shu darajaga borib yetidiki , uning farmonlari , soroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi . Zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda , Abulfayzxon " Saroyning oldi (ya'ni Registon) tinch bo'lsa bo'lgani " , degan gapni doim takrorlab turgan Abulfayizxon davrida o'zbeklarning Mang'it qabilasidan kelib chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib qoladi . U barcha shohzodalar otaliqlarning boshlig'i deb tan olingan edi . Bu boshqa qabilalar asilzodalarning qat'iy noroziligiga sabab bo'ladi . Shahrisabiz hokimi , kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy Urgut va Miyonqol hokimlari bilan til birlashtirib , Buxoro xonligidan mustaqil , poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishiga qaror qildi . Bu maqsadni amalga oshirish uchun 1716-1719 yillarda Qarshiga va Buxoroga hujum qilib hokimiyatni qo'lga olishga harakat qildi . Bu urinish natijasiz tugagach 1722-yilda Samarqandni egallab kuyovi Rajab Sultonni xon deb e'lon qildi .

Natijada mustaqil Samarqand xonligiga asos solindi . Ibrohimbiy o'ziga " Amir-ul-umaro " (Ulug' Amir) unvonini oldi .

Ibrohimbiyning navbatdagi maqsadi Buxoro taxtini egallash , Rajab Sultonni Buxoro taxtiga o'tqazish hamda shu yo'l bilan xonlikning eng nufuzli kishisi bo'lish edi . Abulfayizxon siyosatidan naroz bo'lgan beklar Ibrohimbiyga qo'shildilar . Ibrohimbiy katta qo'shin to'plab , Buxoroga yurish boshlaydi . Ibrohimbiy va Rajab sultonlar kimki ularga qo'shilsa , g'alabadan so'ng juda katta boylik va amal ulashishni va'da qiladilar . Jangda Muhammad Hakimbiy otaliq boshchiligidagi Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi . Lekin Rajab sulton Buxoro shaxrini8 egallay olmaydi .

Abulfayzxon esa vaqtini ko'ngilxushlik ishlariga sarflab , mayxo'rlikga berilib ketadi . Uning ettita farzandi bor . Mast chog'ida ularni o'limga mavkum etdi . Xali gudak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirinib , omon qolgan . Xon davlat ishlarini deyarli nazorat

qilmay qo'ydi . Oliy hokimiyat amalda oily qo'shbegi bo'lib olgan Jovshon qalmoq qo'lga o'tdi . Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirdi . Samarqand , Qarshi , Farg'ona , Badaxshox amalda mustaqil bo'lib oldilar . Bu ahvol tashqi dushmanlarning Movarounnahrda bostirib kirishiga qulay imkoniyat yaratdi .

Eron shoxi Nodirshox Kavkaz , Hindiston , Usmonli turklar saltanati va Avfonistonga qarshi zafarli yurishlardan so'ng , 1736 – yili Buxoro xonligiga bostirib kirdi . Nodirshohning o'g'li Rizoqul yetakchiligidagi qo'shinlar Amudariyodan o'tib , ko'pgina hududlarni bosib oldi va Qarshi 15 kun qamal qiladilar . Bunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi . Xiva xoni Elbarsxonning yordamga kelayotganidan xabar topgan. Nodirshoh buyrug'iga binoan Rizoqul qo'shinlari orqaga qaytib ketadilar.

1740 – yilda Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi ikkinchi marta hujum qiladilar. Bu safar qo'shinni Nodirshohning o'zi boshqaradi . Buxoro va Xiva xonlari umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmaydilar.

Bu ham yetmaganiday, Buxoroning o'zida xoinlik yuz beradi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib, olish niyatidan qaytmagan Qarshi hukumdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketadi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashini uyushtira olmay taslim bo'ladi.

Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga jo'natadi. Abulfayzxon Zarafshan daryosining bo'yidagi Chor baker qo'rig'iga – Nodirshoh huzuriga borishiga va shartnomani imzolashga majbur bo'ladi. Shartnomaga ko'ra , Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 –yilga yetadigan ikki yuz ming xarvar bug'doy va arpa to'plab beradi . bundan tashqari Buxoro xonligi aholisidan 10- ming nafarli qo'shin to'planib, Nodirshoh ixtiyoriga

jo'natiladi. Shunday qilib, Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylanadi. Muhammad Hakimbiy esa imkoniyatdan foydalanib, qushbegi,(bosh vazir) lavozimini egallaydi. Butun hokimyat amalda uning qo'lida to'planadi. Ashtarxoniylar hukumronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoladi.

Fitrat o'z asarida boshlanib kelayotgan xunrezlik siyosti nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bunday jamiyat va yakkahokim rahbardan kelajagi yo'q deya ta'kidlamogchi bo'ladi.